



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№12



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2025-yil, dekabr.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Abdulkarimova Dinara Rustamxanovna

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Abdulkarimova Dinara Rustamkhanovna

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA DAVRIDA TIJORAT BANKLARI LIKVIDLILIK XAVFINI BOSHQARISHI.....	44
Baxromov Nodirjon Muxammadamin o'g'li	
TURIZM XIZMATLAR BOZORI ISTE'MOLCHILARINI SEGMENTLASH USULI ASOSIDA DIVERSIFIKATSIYA KONSEPSIYASINI ISHLAB CHIQUISH.....	48
Maxmudova Aziza Pirmamatovna	
"INNOVATSION AGROTEKNOLOGIYALAR VA "YASHIL IQTISODIYOT" TAMOIYILLARI ASOSIDA G'ALLA YETISHTIRISH BARQARORLIGINI BAHOLASH.....	53
Turayeva Gulizahro	
АНАЛИЗ ЦЕНОБРАЗОВАНИЯ НА ЗЕРНОВЫЕ ПРОДУКТЫ ПО ДАННЫМ МАРКЕТИНГОВЫМ ИССЛЕДОВАНИЯМ (НА ПРИМЕРЕ НАМАНГАНСКОЙ ОБЛАСТИ).....	57
Баҳриддинов Жаҳонгирбек Равшанжон ўғли	
KICHIK BIZNES RIVOJINI TA'MINLASHDA BOZOR INFRATUZILMALARINING AHAMIYATI.....	62
G'aniyev Botir Baxtiyorovich, Zakirova Gulnora Mirzaliyevna	
KICHIK SANOAT ZONALARI FAOLIYATINI SAMARALI BOSHQARISH METODOLOGIYASI VA YO'LLARI.....	67
Shodmonqulov Kamoliddin Murodillaevich	
INNOVATION FAOLIYAT XARAJATLARINING BUXGALTERIYA HISOB VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH.....	73
Mustafoev Akbar Mustafo o'g'li	
MAHSULOT DIVERSIFIKATSIYASI VA LOGISTIKA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH ASOSIDA EKSPORT POTENSIALINI OSHIRISH YO'LLARI.....	78
Maxkamov Ibrayim, Jo'raboyeva Shohida Kamoliddin qizi	
REKLAMA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARI ROLI.....	83
Abduxalilova Laylo To'xtasinovna, Raxmonqulova Shahrizoda	
SIRKULAR IQTISODIYOTDA YOPIQ SIKL NAZARIYASINING ROLI.....	87
Sodikov Zokir Rustamovich	
YASHIL TEKNOLOGIYALARNI JORIY ETISHDA MOLIVAVIY RAG'BATLAR VA ULARNING NATIJALARI.....	92
Axmadjonova Gulmira Xabibulla qizi	
MAMLAKAT IQTISODIYOTI RIVOJLANISHIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING ROLI.....	97
G'aniyev Baydulla Toshmurodovich	
АНАЛИЗ ПОДХОДОВ ЦЕНТРАЛЬНЫХ БАНКОВ К РЕГУЛИРОВАНИЮ ИННОВАЦИОННЫХ БАНКОВСКИХ ПРОДУКТОВ: СРАВНЕНИЕ УЗБЕКИСТАНА И МЕЖДУНАРОДНОЙ ПРАКТИКИ.....	101
Даулетиярова Шахло	
СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ РЫНКА ЦЕННЫХ БУМАГ УЗБЕКИСТАНА.....	109
Кадилова Хадича Тураевна	
XORIY MAMLAKATLARINING IQTISODIYOTNI UGLERODSIZLASHTIRISH STRATEGIYALARI: O'ZBEKISTON UCHUN TAKLIFLAR.....	115
D.X. Pulatov, F.E.Shamsiyev	
O'ZBEKISTONDA ISLOM MOLIVASI: MUAMMOLAR VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....	125
Sattorov Ixtiyor Ochilovich, Karimov Shohruh Yo'ldoshali o'g'li	
HISOB SIYOSATI TARKIBIY TUZILISHI MASALALARI.....	133
Botirova Raximaxon Abdujabbarovna	
QURILISHDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING MOLIVAVIY TAHLILI.....	136
Musayeva Shoirazimovna	



KICHIK SANOAT ZONALARINI RIVOJLANTIRISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH.....	144
Axmedov Oybek Turgunpulatovich	
O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORI PORTFELI TAHLILI.....	149
Madraximov Ilxom Kamilovich	
FOYDA SOLIG'INING O'ZIGA XOS MUAMMOLI JIHATLARI.....	154
Zaripov Xusan Baxodirovich	
AGRAR SEKTORNI INNOVATSION MODERNIZATSIYA QILISHDA INVESTITSIYA OQIMLARINI BOSHQARISH MODELLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	159
Xamrayev Quvvat Iskandarovich	
OLIY TA'LIM XIZMATLARI BOZORIDA MARKETING TADQIQODLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	163
Jalilov Jamshid G'anijonovich, Safarov Zavqiddin Zokir o'g'li	
MINTAQA SANOAT TARMOG'I RIVOJLANISHINING IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI.....	168
Xayitboev Abror Quvondiqovich	
РОЛЬ СМЕШАННОГО ФИНАНСИРОВАНИЯ (BLENDED FINANCE) В ПОВЫШЕНИИ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТИ КОММУНАЛЬНЫХ УСЛУГ: УРОКИ РАЗВИВАЮЩИХСЯ СТРАН.....	174
Гулмаматова Дурдона Шерали кизи	
KORXONALARDA STRATEGIK BOSHQARUV.....	180
Musayeva Dilnoza Dilshatovna	
BANK TIZIMIDA MARKETING AHAMIYATI VA BANK MARKETINGI.....	184
Usubjonov Zaxriddin Vasliddin o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN XORJIY KREDIT MABLAG'LARINI JALB KILISH HUQUQIY JIHATLARI.....	189
Qulliyev Anvar Zayniddinovich	
TIJORAT BANKLARINI TRANSFORMATSIYALASH SHAROITIDA CHAKANA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI.....	194
Alimov Umid O'ktambayevich	
MAHSULOTLARNING RAQAMLI PASPORTI TIZIMINI JORIY ETISH OMILLARI VA TO'SIQLARI.....	200
Avloqulova Sadoqat Sobirjon qizi	
KORXONALARDA FOYDA VA ZARARLARNI TAHLIL QILISHDA INNOVATSION METODLAR AHAMIYATI.....	207
Ernazarov Ortiq Eshnazarovich, Farog'at Xo'jabekova	
ВЛИЯНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА НА ЭКОНОМИЧЕСКОЕ БЛАГОСОСТОЯНИЕ, А ТАКЖЕ НОВЫЕ МЕХАНИЗМЫ ПОВЫШЕНИЯ ДОХОДОВ НАСЕЛЕНИЯ.....	212
Останов Эгамберди	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA INNOVASION TEXNOLOGIYALARNI INTEGRATSIYALASH: MOHIYATI VA RIVOJLANISH IMKONIYATLARI.....	218
Xakimova Xulkar Xamidovna	
QORAQALPOG'ISTON VA XORAZM OZIQ-OVQAT SANOATINING IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI HAMDA UNI YANADA RIVOJLANTIRISH YO'LLARI.....	224
Tleuov Niyetulla Raxmanovich	
OILAVIY KORXONALARNING IQTISODIY TIZIMDAGI O'RNI.....	230
Shadiyeva Gulnora Mardiyevna, Rustamova Zarina Rustamovna	
SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA O'ZBEKISTON OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MARKETING FAOLIYATINI MODELLASHTIRISH VA BOSHQARISH MEXANIZMLARI.....	234
Sadikov Shoxrux Shuxratovich	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASI KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISHDA RAQAMLI XIZMATLARNING AHAMIYATI.....	238
Asenbaeva Aydaygul Edenbaevna	
BARQARORLIK VA YASHIL MENEJMENT: ILMIY-NAZARIY YONDASHUVLAR VA AMALIY AHAMIYATI.....	242
Djalilova Dilbar Abdikarim qizi	



HUDUDLARNING IQTISODIY SALOHİYATINI INNAVATSION-INVESTITSION BOSHQARISH STRATEGIYASI VA MEXANIZMI (XORAZM VILOYATI MISOLIDA)	247
Maqsudova Malohatxon Maqsudovna, Yaxshimuratov Maqsadbek Narimon o'g'li	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT BYUDJETINI 2026-YILGI SOLIQ SIYOSATINING TAHLILI VA XALQARO SOLISHTIRMA YONDASHUVI	251
Abdullayev Zafarbek Safibullayevich	
O'ZBEKISTON MINTAQALARIDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI	256
Mamataliyeva Dilnoza Raxmonovna	
TRANSFORMATSIYALASHUV SHAROITIDA INVESTITSİYALAR SHAKLLANISHI VA ULARNI SAMARALI BOSHQARISH YO'NALISHLARI	259
To'rayev Jasurali To'rayevich	
O'ZBEKISTONDA SAVDO TASHKIOTLARINING FAOLIYATI VA RIVOJLANISH HOLATI	264
B. Sulaymonov	
NAMANGAN VILOYATIDA "YASHIL IQTISODIYOT" MODELIGA O'TISH JARAYONIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING IQTISODIY FAOLLIGI	270
Xonto'rayev Obbosxon Kamolxon o'g'li	
O'ZBEKISTONDA "YASHIL" IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	274
Xoshimov Pazliddin Zuxurovich	
KICHIK BIZNES ORQALI ISH O'RINLARINI YARATISH STRATEGIYALARI: NAMANGAN VILOYATI MISOLIDA	278
Ergasheva Nigora Abdigapparovna	
MAMLAKATIMIZDA QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'INING IJTIMOIIY-IQTISODIY AHAMIYATI	283
Quryozov Sardorbek Sharifboevich	
РАЗРАБОТКА И ПРИОРИТИЗАЦИЯ КЛЮЧЕВЫХ ИНДИКАТОРОВ ЭФФЕКТИВНОСТИ ДЛЯ ОБЩЕНАЦИОНАЛЬНОЙ ПАНЕЛИ МОНИТОРИНГА ДЕЯТЕЛЬНОСТИ БОЛЬНИЦ: ЭКСПЕРТНАЯ ОЦЕНКА СО СТОРОНЫ РУКОВОДИТЕЛЕЙ МЕДУЧРЕЖДЕНИЙ	290
Шухратов Мамуржон Шухрат угли	
MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYAT ORGANLARINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA BOSHQARISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR	297
Nurmurodov Zafarjon Nurmurod o'g'li	
BANK TIZIMINING BARQAROR MOLIVAVIY RIVOJLANISHINI TA'MINLASH VOSITALARI	303
Sadikov Iskandar Gayratovich	
ЗЕЛЕНОЕ ФИНАНСИРОВАНИЕ В ЗЕЛЕННОЙ ЭКОНОМИКЕ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА	308
Халиков С. Х.	
HUDUDIY IQTISODIY RIVOJLANISHDA KICHIK BIZNESNI ROLI VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH CHORALARI	313
Ergashev Jamshid Jamoliddinovich	
ИСТОРИЧЕСКИЙ ПРОЦЕСС СТАНОВЛЕНИЯ ФАРМАЦЕВТИЧЕСКОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ	317
Мажидова Фарангиз Фуркатзода	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDAGI TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA ISHLAB CHIQRISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH	321
Isakov Oybek Jamoliddinovich	
NORASMIY KOOPERATSIYA MUNOSABATLARINING FERMER XO'JALIKLARI YETISHTIRGAN MAHSULOT MIQDORIGA TA'SIRINI BAHOLASH	325
Ismoilov Azamat	
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA FOIZ RISKINI BOSHQARISH AMALIYOTI	332
Seitnazarov Daniyar Baxadirovich	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA SUT VA SUT MAHSULOTLARINI QAYTA ISHLOVCHI KORXONALAR FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH	341
Normuradov Nurbek Sunatilloevich	
"AYOL RAHBARLAR: RAHBARLIK SALOHİYATI VA ISH JOYIDA TENGLIK" FRANSIYA DAVLATI TAJRIBASI ASOSIDA	346
Abduraxmonova Feruzabonu	



QISHLOQ XO'JALIGIDAGI KLASSTERLARNING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH.....	352
Dildora Yuldasheva	
TIJORAT BANKLARINING DEPOZIT BAZASINING YETARLILIGINI TA'MINLASH YO'LLARI	359
I.J. Isakov	
OLIY TA'LIM SIFATINI OSHIRISH VA IQTISODIY DIAGNOSTIKA O'TKAZISHNING XORIJ TAJRIBASI	363
Xo'jaxonov Ma'rufxon Xamidxonovich, Axmedov Oybek Turg'unpulatovich	
INKLYUZIV TA'LIMNI MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHDAGI MUAMMOLAR VA ULARNI YECHISH YO'LLARI.....	369
Egamberdiyeva Dilorom Botir qizi, Pulatova Moxira Baxtiyorovna	
"KREATIV IQTISODIYOT" HAMDA "TURIZM" TUSHUNCHALARINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	374
Abdurasulov Shovqiddin Erkin o'g'li	
THE STRATEGIC ROLE OF THE INDUSTRIAL SECTOR IN THE NATIONAL ECONOMY AND DEVELOPMENT FACTORS.....	380
Rakhimov Bakhromjon Ibroximovich	
INVESTITSIYALARNI MOLIYALASHTIRISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI.....	386
Ismailov Dilshod Anvarjonovich	
GLOBAL INCOME INEQUALITY IN 2024: CAUSES, PATTERNS, AND CONSEQUENCES.....	393
Ilxomjonov Jaxongir Alisher o'g'li	
ТОРГОВЫЕ ОТНОШЕНИЯ В СВОБОДНО ЭКОНОМИЧЕСКИХ ЗОНАХ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ	401
Шарифходжаев Шавкат Окилович, Ачилова Ширин Шавкат кизи	
O'ZBEKISTON KON-METALLURGIYA SANOATI: RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA HOZIRGI HOLATI	407
Ergashov Botirjon Ergashovich	
PENSIYA JAMG'ARMASIDA DAVLAT BUDJETI TRANSFERTLARI ULUSHI HAMDA UNING XORIJ TAJRIBASI	415
Sherjonov Doniyor Saparbayevich	
O'ZBEKISTON SANOAT KORXONALARINI QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORIDAN FOYDALANIB MOLIYALASHTIRISHNING HOZIRGI HOLATI VA MUAMMOLARI.....	419
Igitov Jurabek Kuzibekovich	
QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'I BO'YICHA FIRIBGARLIKLAR: MEXANIZMLARI, SABABLARI VA ULARNI OLDINI OLISH YO'LLARI.....	425
Eshkarayev Bobir Chariyevich	
TOG' VA TOG'OLDI HUDUDLARIDA QISHLOQ XO'JALIGINI DIVERSIFIKATSIYA QILISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI VA IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	431
Abdulxayeva Gulshan Maxmudovna	
TURIZM SOHASINING IJTIMOIIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI (SAMARQAND VILOYATI MISOLIDA).....	435
Xalimov Shaxboz Xalimovich	
SANOATDA IQTISODIY MOLIYAVIY HISSOBOTLAR XALQARO STANDARTLARINI RAQOBATBARDOSH KORPORATIV STRATEGIYALARNI SHAKLLANTIRISHDA QO'LLASH.....	442
Turaboev Ibroxim Ismoil o'g'li	
ФОНДИРОВАНИЕ И СТРАХОВАНИЕ В СИСТЕМЕ УПРАВЛЕНИЯ ФИНАНСОВЫМИ РИСКАМИ АПК: СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ И МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ	447
Дурманов Акмал Шаймарданович	
PAHTA-TO'QIMACHILIK KLASSTERLARI RIVOJLANISHINING STATISTIK KO'RSATKICHLARI TAHLILI	456
Atajanova Guli Maxsudbekovna	
JAHON MOLIYAVIY BOZORLARI BARQARORLIGIGA GLOBAL IQTISODIY INQIROZLAR VA GEOSIYOSIY OMILLARNING TA'SIRI HAMDA ULARNI BOSHQARISH STRATEGIYALARI	462
Abdurazakova Nargiza Rixsibayevna	



QISHLOQ XO'JALIGIDA RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISH VA OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARINI ISHLAB CHIQRISHDA BOSHQARUV QARORLARINING IQTISODIY TAHLILI.....	467
Mamadiyarov Dilshad Uralovich	
PAXTA TOZALASH KORXONALARINING TARKIBIY BO'LINMALARIDA MOLIVAVIY BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	474
Murodov Orif Jumayevich, G'ulomov Xaydarbek Ilyos o'g'li	
BARQAROR KELAJAK SARI: MAMLAKATDA EKOLOGIK XAVFSIZLIKNI MUSTAHKAMLASH	482
Abdullaev Shavkatjon Maxmudillaevich	
ZAMONAVIY IQTISODIY SHAROITLARDI KORXONALARNING MOLIVAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASH	487
Abdulakimova Moxina Farxod qizi	
UMUMIY OVQATLANISH SHAHOBCALARINING FAOLIYATI SAMARADORLIGINI TAHLIL QILISH.....	493
Amiriddinova Muslima Zayniddin qizi	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA MIJOZLAR EHTIYOJINI O'RGANISH VA XIZMAT SIFATINI OSHIRISHNING INNOVATSION YONDASHUHLARI	498
Babayeva Lola Ibragimovna	
MINTAQADA TARIXIY VA MADANIY TURIZMNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARINI KENGAYTIRISHDA DAVLAT HAMDA XUSUSIY SHERIKCHILIK TIZIMIDAN FOYDALANISH	504
Xusanov Chari Kadirovich	
PROSPECTS FOR IMPROVING INFRASTRUCTURE FOR SMALL BUSINESS AND ENTREPRENEURSHIP IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN.....	509
Botirova Xulkar Olimjonovna	
THE IMPACT OF AGRICULTURAL CLUSTERS ON FOOD SECURITY AND MACROECONOMIC STABILITY	514
Sherkulov Shohruh Erkin ugli	
OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA ISSIQXONA IQTISODIYOTINI O'RNI VA NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLAR	520
Otavullaev Sukhrob Sa'dullo o'g'li	
IJTIMOII AHAMIYATI YUQORI LOYIHALARNI DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGI ASOSIDA BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH	524
Taspanova Ayzada Kenjebayevna	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA RAQOBAT STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH	529
Sharopova Nafosat Radjabovna, Jamolova Aziza	
TIKUV-TRIKOTAJ KORXONALARIDA ISTE'MOLCHILARNING XULQ-ATVORINI O'RGANISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	537
Sultonova Zulxumor, Bobojonov Baxrombek Ro'zimovich	
INTERNATIONAL TRADE BETWEEN INTEGRATION AND ISOLATION: INNOVATION AND UNCERTAINTY IN A FRAGMENTING GLOBAL ECONOMY.....	542
Zakhidov Azizbek Rustamovich	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI QO'NG'IROT TUMANIDA SIGIRLAR BOSH SONINING PROGNOZ KO'RSATKICHLARI	548
Sabit Gabbarov	
TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTINI OSHIRISHDA YASHIL MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH	552
Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna, Xo'janova Husnora	



TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTINI OSHIRISHDA YASHIL MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH

Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

"Marketing" kafedrası mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Email: ergashxodjayeva_sh@tsue.uz

ORCID: 0000-0001-6689-7875

Xo'janova Husnora

TDIU "Kechki ta'lim va magistratura" fakulteti

MRT-25 guruh talabasi

Email: hxojanova1996@gmail.com

ORCID: 0009-0003-1404-205X

Annotatsiya. Ushbu maqolada to'qimachilik mahsulotlari eksportini oshirish jarayonida yashil marketing strategiyalaridan foydalanishning ahamiyati ochib berilgan. Jahon bozorida ekologik toza mahsulotlarga bo'lgan talabning ortib borishi O'zbekiston to'qimachilik sanoatida ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish, ekologik sertifikatlash tizimlarini joriy etish hamda barqaror yetkazib berish zanjirlarini shakllantirish zarurligini ko'rsatadi. Tadqiqotda yashil marketingning asosiy elementlari — ekologik mahsulot dizayni, ekologik reklama, chiqindisiz texnologiyalar va resurslardan samarali foydalanish — eksport salohiyatiga ko'rsatadigan ta'siri bilan yoritilgan. O'zbekiston to'qimachilik korxonalarining xalqaro standartlarga moslashish jarayoni tahlil qilinib, ekologik innovatsiyalarni joriy etish orqali xorijiy bozorlarda raqobatbardoshlikni oshirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, yashil marketing strategiyalari to'qimachilik mahsulotlarining qo'shimcha qiymatini oshirishi, brend ishonchligini kuchaytirishi va eksport hajmining barqaror o'sishiga xizmat qilishi aniqlangan.

Kalit so'zlar: yashil marketing, to'qimachilik mahsulotlari, eksport, ekologik sertifikatlash, barqaror ishlab chiqarish, energiya tejamkor texnologiyalar, ekologik innovatsiyalar.

Abstract. This article analyzes the importance, opportunities and mechanisms of using green marketing strategies in the process of increasing textile exports. The growing demand for environmentally friendly products in the world market indicates the need to modernize production processes in the Uzbek textile industry, introduce environmental certification systems and form sustainable supply chains. The study highlights the impact of the main elements of green marketing - ecological product design, ecological advertising, waste-free technologies and efficient use of resources - on export potential. The process of adapting Uzbek textile enterprises to international standards is analyzed, and practical recommendations are developed to increase competitiveness in foreign markets through the introduction of ecological innovations. According to the results of the study, green marketing strategies increase the added value of textile products, strengthen brand credibility and contribute to sustainable growth in export volumes.

Key words: green marketing, textile products, export, environmental certification, sustainable production, energy-efficient technologies, ecological innovations.

Аннотация. В данной статье анализируются значение, возможности и механизмы использования стратегий зеленого маркетинга в процессе увеличения экспорта текстильной продукции. Растущий спрос на экологически чистую продукцию на мировом рынке свидетельствует о необходимости модернизации производственных процессов в узбекской текстильной промышленности, внедрения систем экологической сертификации и формирования устойчивых цепочек поставок. В исследовании освещается влияние основных элементов зеленого маркетинга - экологического дизайна продукции, экологической рекламы, безотходных технологий и эффективного использования ресурсов - на экспортный потенциал. Проанализирован процесс адаптации узбекских текстильных предприятий к международным стандартам и разработаны практические рекомендации по повышению конкурентоспособности на внешних рынках за счет внедрения экологических инноваций. По результатам исследования, стратегии зеленого маркетинга увеличивают добавленную стоимость текстильной продукции, укрепляют авторитет бренда и способствуют устойчивому росту объемов экспорта.

Ключевые слова: зеленый маркетинг, текстильная продукция, экспорт, экологическая сертификация, устойчивое производство, энергосберегающие технологии, экологические инновации.



KIRISH

Global iqtisodiyotda ekologik barqarorlik tamoyillarining kuchayishi korxonalar faoliyatida yangi strategik yondashuvlarni joriy etishni talab qilmoqda. Xususan, ishlab chiqarish jarayonlarining ekologik talablarga mosligi, resurslardan samarali foydalanish, chiqindilarni kamaytirish va ekologik xavfsiz mahsulotlar ishlab chiqarish bugungi kunda xalqaro bozorlarga chiqishning muhim omillaridan biriga aylangan. Shu nuqtayi nazardan, yashil marketing strategiyalari korxonalarning nafaqat ichki bozorda, balki tashqi bozorda ham raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiluvchi zamonaviy boshqaruv vositasiga aylanmoqda.

O'zbekiston iqtisodiyotida to'qimachilik sanoati yetakchi tarmoqlardan biri bo'lib, mamlakat eksport tarkibida salmoqli o'ringa ega. Jahon bozorida "eco-friendly", "sustainable textile", "green production" kabi talablarning kuchayishi mahalliy korxonalar oldiga xalqaro standartlarga moslashish, ekologik sertifikatli tizimlarini joriy etish va mahsulot brendingida ekologik ustunliklarni namoyish qilish kabi vazifalarni qo'yimoqda. Shunday sharoitda yashil marketing konsepsiyasidan foydalanish to'qimachilik mahsulotlarining qo'shimcha qiymatini oshirish, ekologik jihatdan jozibador imidj yaratish va eksport geografiasini kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda sanoatni modernizatsiya qilish, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish, atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirish va xalqaro ekologik standartlarga mos ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish bo'yicha qator islohotlar amalga oshirilmogda. Bu jarayon to'qimachilik sanoatida barqaror rivojlanish tamoyillarini integratsiya qilish hamda ilg'or marketing yondashuvlarini tatbiq etish uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda.

Shu bois ushbu tadqiqotda yashil marketing strategiyalarining mazmuni, ularning to'qimachilik sanoati eksport salohiyatiga ta'siri, jahon tajribasi hamda O'zbekiston sharoitida qo'llash mexanizmlari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari korxonalar uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga, eksport hajmini oshirishga va xalqaro bozordagi raqobatbardoshlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Yashil marketing strategiyalarining to'qimachilik sanoati eksportiga ta'sirini o'rganishda, birinchi navbatda B. Harsanto va hammualliflarining to'qimachilik sanoatidagi barqarorlik innovatsiyalari bo'yicha tizimli sharhi muhim o'rin tutadi. Ular o'z tadqiqotida ekologik sertifikatlash, chiqindisiz ishlab chiqarish va energiya tejamkor texnologiyalarni sanoatning raqobatbardoshligini oshiruvchi asosiy omillar sifatida ko'rsatadi [1]. Mualliflarning ta'kidlashicha, "sustainability-driven marketing" eksportga yo'naltirilgan korxonalarda mahsulot qiymatini oshirishning strategik vositasidir. Ushbu xulosalar O'zbekiston korxonalarida ekologik sertifikatlar sonining ko'payishi bilan eksportning barqaror o'sib borishi bilan uyg'unlik kasb etadi.

A. Vassalo va hammualliflar raqamli transformatsiya sharoitida barqaror moda sanoatining marketing xatti-harakatlarini o'rgangan va zamonaviy iste'molchilarning ekologik qadriyatlarga mos mahsulotlarni afzal ko'rishini ta'kidlagan [2]. Ularning fikricha, "digital green branding" eksport uchun yangi imkoniyatlar yaratadi, chunki rivojlangan davlatlar bozorlarida ekologik imidj xarid qarorining asosiy omiliga aylanmoqda. Bu qarashlar O'zbekistonning Yevropa va Osiyo bozorlariga chiqishida ekologik brendingni kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi.

N. Heidenstrom o'z tadqiqotida yashil marketingda qo'llaniladigan "sustainability narratives"ni tanqidiy tahlil qilib, iste'molchilar ekologik iddaolarning shaffofligiga katta ahamiyat berishini ta'kidlaydi [3]. U ekologik brending faqat reklama emas, balki ishlab chiqarish jarayonining real ekologik ko'rsatkichlari bilan tasdiqlanishi lozimligini urg'ulaydi. Bu fikr O'zbekiston korxonalarida ekologik sertifikatlashning eksport uchun nechog'lik muhim ekanini yana bir bor tasdiqlaydi.

I. Ricciardi barqaror mahsulot innovatsiyasining moda sanoatiga ta'sirini o'rganib, ekologik xususiyatga ega mahsulot dizayni bozor ulushini oshirishini aniqlaydi [4]. U mahsulotning ekologik qiymati uni xalqaro bozorda yuqori narx segmentiga olib chiqishini isbotlaydi. Ushbu natijalar O'zbekistonda ekologik mahsulot dizaynini joriy etish zarurligini ko'rsatadi.

Association for Computing Machinery (ACM) tomonidan chop etilgan ilmiy ishlarda barqaror to'qimachilik eksportida real vaqtli tahlil va raqamli boshqaruv vositalarining ahamiyati ko'rsatib berilgan. Mualliflar eksport qarorlarini qo'llab-quvvatlashda ekologik indikatorlar bilan ishlovchi elektron tizimlar samarali ekanini ta'kidlaydi [5]. Bu xulosa O'zbekiston korxonalari uchun eksport strategiyasini raqamlashtirish zarurligini anglatadi.

P. Kumar va R. Singhlar to'qimachilik sanoatida Industry 4.0 texnologiyalari orqali ekologik barqarorlikni oshirish yo'llarini tahlil qilgan [6]. Ular avtomatlashtirilgan energiya tejamkor qurilmalar, chiqindi monitoringi va resurslarni optimallashtirish kabi yo'nalishlarning ekologik marketing strategiyalarini qo'llab-quvvatlashini ta'kidlaydi. O'zbekistonda davom etayotgan modernizatsiya jarayonlarida bu yondashuvlar amaliy jihatdan dolzarb sanaladi.



O'zbek olimlari orasida D. Raximova va A. Abdikahorov mamlakatning brendli to'qimachilik korxonalarining eksport salohiyatini o'rganib, ekologik sertifikatlashning global bozorlarga chiqishdagi rolini bevosita tasdiqlaydi [7]. Ularning fikricha, brendning ekologik imiji korxonaning eksport narxini oshiruvchi omil sifatida xizmat qiladi.

M. Eshboyeva va A. To'rayev to'qimachilik eksportining rivojlanish omillarini tahlil qilib, energiya tejamkor texnologiyalar va resurslardan oqilona foydalanish eksport tannarxini pasaytirib, raqobatbardoshlikni oshirishini ta'kidlaydi [8]. Bu xulosalar xorijiy manbalardagi ilmiy natijalar bilan to'liq mos keladi.

A. Olimov va U. Hamzayeva O'zbekiston to'qimachilik sanoatining rivojlanish istiqbollari o'rganib, xalqaro standartlarga mos ekologik transformatsiya eksportning barqaror o'sishi uchun zarur shart ekanini ko'rsatadi [9]. Ular global bozor talablarining tobora ekologik xarakterga ega bo'layotganini alohida qayd etadi.

G. Umarova to'qimachilik sohasida investitsion siyosat va barqaror texnologiyalar joriy etilishining eksport salohiyatiga ta'sirini o'rgangan [10]. Uning fikriga ko'ra, yashil texnologiyalarga qaratilgan sarmoyalar korxonalarni global bozorga integratsiya jarayonini tezlashtiradi.

N. Sharopova esa bozordagi raqobat kuchayib borar ekan, biznes jarayonlariga sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalarni integratsiya qilish ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va strategik qarorlar qabul qilishda jahon marketingining tez rivojlanishiga hissa qo'shayotganini ta'kidlaydi [11]. Bu fikr global bozorlarda innovatsion yondashuvlarning zarurligini ko'rsatadi va to'qimachilik eksportida yashil marketing strategiyalarining ahamiyatini yanada kuchaytiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda to'qimachilik mahsulotlari eksportini oshirishda yashil marketing strategiyalarining ta'sirini aniqlash maqsadida kompleks metodologik yondashuv qo'llanildi. Avvalo, mavzuga oid 2020–2025-yillarda chop etilgan xorijiy va mahalliy ilmiy manbalar tizimli tarzda tahlil qilindi. “Sustainability”, “green marketing”, “eco-textiles”, “sustainable supply chain” kabi yo'nalishlardagi maqolalar bibliometrik saralanib, nazariy asoslar, ilmiy qarashlar va mavjud konsepsiyalar aniqlab olindi. Ushbu bosqichda ilmiy adabiyotlarni kontent-tahlil qilish usuli orqali to'qimachilik sanoatida ekologik yondashuvlarni joriy etishning nazariy modeli shakllantirildi.

Ikkinchi bosqichda O'zbekiston to'qimachilik sanoati bo'yicha ochiq statistika, O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika agentligi, International Trade Centre (ITC) – Trade Map Database, United Nations Commodity Trade Statistics Database hamda tegishli xalqaro tashkilotlar bazalari asosida eksport ko'rsatkichlari o'rganildi. Yashil marketingga oid o'zgaruvchilar — ekologik sertifikatlash (GOTS, OEKO-TEX), energiya tejamkor texnologiyalar, chiqindisiz ishlab chiqarish, ekologik brending amaliyoti kabi indikatorlar asosida tahliliy yondashuv qo'llandi. Mazkur indikatorlarning eksport hajmi va raqobatbardoshlik bilan o'zaro bog'liqligi korrelyatsion kuzatuvlar orqali baholandi.

Uchinchi bosqichda sifat tahlili elementlari qo'llanib, mahalliy to'qimachilik korxonalarining amaliy tajribasi o'rganildi. Buning uchun ochiq manbalardagi korxonalar faoliyati haqidagi ma'lumotlar, rasmiy intervyular, xalqaro ko'rgazmalardagi taqdimotlar va marketing strategiyalari tahlil qilindi. Olingan natijalar asosida eksport salohiyatini oshirishga xizmat qiluvchi yashil marketing strategiyalarining konseptual modeli ishlab chiqildi hamda korxonalar uchun amaliy tavsiyalar shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari yashil marketing strategiyalarining to'qimachilik mahsulotlari eksport hajmiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini tasdiqladi. Avvalo, xalqaro va mahalliy statistik ma'lumotlar asosida aniqlanishicha, ekologik sertifikatga ega korxonalar eksporti sertifikatsiz korxonalarga nisbatan barqarorroq o'sishga ega. 2020–2024-yillar davomida O'zbekistonda ekologik sertifikatlash jarayonini joriy etgan korxonalarda o'rtacha yillik eksport o'sishi 12–18% ni tashkil etdi, bu esa umumiy sanoat o'sish ko'rsatkichlaridan yuqoridir (1-jadval).

1-jadval. O'zbekistonda to'qimachilik korxonalarining ekologik sertifikatlashning eksportga ta'siri tahlili¹ [12]

Yillar	Sertifikatli korxonalar soni	Eksport hajmi (mln AQSH dollar)	O'sish darajasi (foizda)
2020	48	312	9.5
2021	63	365	11.7
2022	84	431	15.3
2023	112	506	17.4
2024	137	598	18.2

1 Statistik ma'lumotlarga asoslangan muallif ishlarnasi



1-jadval ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda to'qimachilik sanoatida 2020–2024-yillar davomida ekologik sertifikatga ega to'qimachilik korxonalari soni izchil oshib borgan. 2020-yilda 48 ta bo'lgan korxonalar soni 2024-yilga kelib 137 taga yetgan. Bu holat sohada ekologik standartlarga mos ishlab chiqarish tizimlarini joriy etishga bo'lgan qiziqish va talabning ortib borayotganini ko'rsatadi. Mazkur davrda eksport hajmi ham barqaror o'sish tendensiyasiga ega bo'lib, 2020-yildagi 312 mln AQSH dollaridan 2024-yilda 598 mln AQSH dollarigacha yetgan. Ayniqsa, 2024-yilda eksport o'sish sur'atlarining tezlashib 18,2 foizga yetgani ekologik sertifikatlashning xalqaro bozorlarda raqobatbardoshlikka bevosita ta'sir qilayotganini tasdiqlaydi.

Ekologik sertifikatlar Yevropa Ittifoqi va boshqa rivojlangan bozorlar talablariga mos kelishi tufayli mahsulotlarning eksport geografiyasi kengaygan. Shunday qilib, jadval ma'lumotlari ekologik sertifikatlash to'qimachilik mahsulotlari eksporti o'sishining muhim omillaridan biri ekanini ko'rsatadi. U nafaqat eksport hajmini oshirishga, balki mahsulotlarning qo'shimcha qiymatini ko'paytirishga va korxonalarning xalqaro bozordagi ishonchligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu esa yashil marketing strategiyalarining eksportga yo'naltirilgan to'qimachilik korxonalari uchun dolzarbligini yana bir bor tasdiqlaydi (2-jadval).

2-jadval. Yashil marketing indikatorlari va eksport hajmi o'rtasidagi bog'liqlik² [12]

Ko'rsatkichlar	Bog'lanish (r)	Ta'sir darajasi
Ekologik sertifikatlar	0.81	Kuchli
Energiya tejamkor texnologiyalar	0.74	O'rtacha-kuchli
Chiqindisiz ishlab chiqarish	0.69	O'rtacha
Ekologik brending	0.63	O'rtacha
Ekologik qadoqlash	0.58	O'rtacha

2-jadvalda to'qimachilik sanoatida qo'llanilayotgan yashil marketing ko'rsatkichlari bilan eksport hajmi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik darajasi korrelyatsion tahlil asosida aks ettirilgan. Jadval natijalariga ko'ra, ekologik sertifikatlar (GOTS, OEKO-TEX va shunga o'xshash) eksport hajmi bilan eng kuchli bog'liqlikka ega bo'lib, korrelyatsiya koeffitsienti $r = 0,81$ ni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich ekologik standartlarga mos ishlab chiqarish xalqaro bozorlarda xaridorlar ishonchini oshirishi va eksport imkoniyatlarini kengaytirishini tasdiqlaydi. Energiya tejamkor texnologiyalar eksport hajmi bilan o'rtacha-kuchli bog'liqlikka ega ($r = 0,74$). Ushbu ko'rsatkich bevosita eksportni oshirishdan ko'ra, mahsulot tannarxining pasayishi, resurslardan samarali foydalanish va ishlab chiqarish barqarorligini ta'minlash orqali bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Chiqindisiz ishlab chiqarish texnologiyalari ($r = 0,69$) ham eksport samaradorligiga ijobiy ta'sir etuvchi omil bo'lib, ayniqsa ekologik talablar yuqori bo'lgan bozorlarda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, ekologik brending ($r = 0,63$) va ekologik qadoqlash ($r = 0,58$) indikatorlari eksport bilan o'rtacha darajada bog'liqlikka ega bo'lsa-da, ularning ahamiyati kam emas. Korrelyatsion natijalarga ko'ra, ekologik sertifikatlash eksportning eng kuchli drayveri ekanligi isbotlandi ($r = 0,81$). Eng past ta'sir ko'rsatkichi ekologik qadoqlashga to'g'ri kelgan, biroq u ham o'rtacha darajada ijobiy ta'sir ko'rsatishi qayd etilgan (3-jadval).

3-jadval. O'zbekiston to'qimachilik korxonalarida yashil marketing strategiyalarini joriy etish natijalari³ [13]

Strategiya turi	Joriy etilgan (foizda)	Samaradorlik (5 ballik)
Ekologik mahsulot dizayni	54	4.1
Yashil brending	47	4.3
Energiya tejamkor texnologiyalar	62	4.5
Ekologik reklama	39	3.8

3-jadval ma'lumotlariga ko'ra, so'rov natijalari korxonalar orasida eng ko'p joriy etilgan strategiya — energiya tejamkor texnologiyalar ekanini, eng samarador strategiya esa “yashil brending” va ekologik texnologiyalar ekanini ko'rsatdi. Xulosa sifatida aytish mumkinki, yashil marketing strategiyalarining eksportga ta'siri aniq ijobiy ekanligi statistik jihatdan tasdiqlandi: ekologik sertifikatlash eksport hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib chiqqan, yashil texnologiyalarni qo'llayotgan korxonalarda raqobatbardoshlik va narx premiumi oshgan, ekologik brending esa korxonalarning xalqaro bozorda tanilish darajasini sezilarli darajada kuchaytirgan.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, O'zbekiston to'qimachilik korxonalarida yashil marketing strategiyalarini joriy etish eksport samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Ekologik sertifikatlashning eksport bilan yuqori

2 Statistik ma'lumotlarga asoslangan muallif ishlanmasi

3 Statistik ma'lumotlarga asoslangan muallif ishlanmasi



korrelyatsiyaga ega bo'lishi ($r = 0,81$) jahondagi umumiy tendensiya — ekologik toza mahsulotlarga bo'lgan talabning ortib borayotganini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, eksport bozorlarining geografik tarkibida ham sifatli o'zgarish kuzatildi: GOTS yoki OEKO-TEX sertifikatiga ega korxonalar ko'proq Yevropa, Koreya va AQSH bozorlariga chiqishga muvaffaq bo'lgan. Bu holat yashil marketingning asosiy elementlari nafaqat imidjni yaxshilashi, balki yuqori narx segmentiga kirish imkoniyatini ham kengaytirishini ko'rsatadi.

Energiya tejamkor texnologiyalar va chiqindisiz ishlab chiqarish jarayonlarining eksportga ta'siri ham ijobiy ekanligi aniqlangan bo'lsa-da, ushbu strategiyalar ko'proq ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va operatsion samaradorlikni oshirish orqali bilvosita ta'sir ko'rsatadigan omillar sifatida namoyon bo'ldi. Ya'ni, bu texnologiyalar eksport ko'rsatkichlarini bevosita oshirmasada, mahsulot tannarxini pasaytirish, sifatni yaxshilash va yetkazib berish barqarorligini oshirish orqali korxonalarni raqobatbardosh qilmoqda. Shu sababli, yashil texnologiyalar korxonalar uchun uzoq muddatli strategik investitsiya sifatida ko'rilishi lozim.

So'rovnomalar natijalariga ko'ra, korxonalar orasida eng samarali strategiya sifatida "yashil branding" va ekologik mahsulot dizayni e'tirof etilgan bo'lsa-da, ushbu yo'nalishlar hali to'liq shakllanmagan. Ularning joriy etilish darajasi (39–54%) ekologik marketing kommunikatsiyalarida bozor imkoniyatlari hali to'liq ochildiganini bildiradi. Bu esa korxonalar uchun hali foydalanilmagan katta potensial borligini anglatadi. Xalqaro tajriba bilan solishtirilganda, O'zbekistonda ekologik reklama va ekologik qadoqlash marketingi hali boshlang'ich bosqichda bo'lib, kelgusida bu sohalarida katta o'sish kutilmoqda. Ushbu yo'nalishlarni kuchaytirish korxonalar imidjini mustahkamlab, yuqori qo'shimcha qiymatli mahsulot segmentiga kirish imkoniyatlarini yanada kengaytiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, O'zbekiston to'qimachilik sanoatida yashil marketing strategiyalarini joriy etish eksport salohiyatini oshirishning eng samarali yo'nalishlaridan biridir. Ekologik sertifikatlar (GOTS, OEKO-TEX) mavjud bo'lgan korxonalarda eksport hajmining o'rtacha yillik 12–18% ga oshishi ekologik standartlarga mos ishlab chiqarishning xalqaro bozorlarga kirishdagi hal qiluvchi omil ekanini tasdiqladi. Xalqaro statistika va korrelyatsion tahlil eksportning ekologik amaliyotlar bilan kuchli bog'liqligini ko'rsatib, yashil marketingning ayniqsa eksportga yo'naltirilgan korxonalar uchun strategik ahamiyatga ega ekanini namoyon qildi.

Yashil texnologiyalar — energiya tejamkor qurilmalar, chiqindisiz ishlab chiqarish, ekologik mahsulot dizayni — korxonalarda tannarxning kamayishi va mahsulot sifatining oshishi orqali raqobatbardoshlikni kuchaytirayotgani aniqlangan. Bu omillar eksport ko'rsatkichlarini bilvosita qo'llab-quvvatlab, korxonalarning barqaror rivojlanishiga asos yaratadi. Shuningdek, "yashil branding" va ekologik reklama iste'molchilar ishonchini oshirib, xorijiy xaridorlar uchun mahsulotning jozibadorligini kuchaytirishi qayd etildi. Biroq ushbu strategiyalarni to'liq joriy etish darajasi hali yetarli emasligi, ularni rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, tadqiqot O'zbekiston to'qimachilik sanoatida yashil marketing strategiyalarini kompleks tarzda joriy etish ekologik barqarorlikni ta'minlash bilan birga eksport hajmini oshirish, yangi bozorlarni egallash va raqobatbardoshlikni mustahkamlashga xizmat qilishini tasdiqladi. Korxonalar uchun ekologik sertifikatlashni kengaytirish, energiya tejamkor texnologiyalarga investitsiya kiritish va ekologik branding siyosatini kuchaytirish eng muhim ustuvor yo'nalish sifatida tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. B.Harsanto, I.Primiana, V.Sarasi va Y.Satyakti (2023). Sustainability innovation in the textile industry: A systematic review. *Sustainability*, 15(2), 1549. <https://doi.org/10.3390/su15021549>
2. A.Vassal, C.Marques, J.Simões, M.Fernandes, va S.Domingos (2024). Sustainability in the fashion industry in relation to consumption in a digital age. *Sustainability*, 16(13), 5303. <https://doi.org/10.3390/su16135303>
3. N.Heidenstrom (2024). Green Marketing in the fashion industry: A critical analysis of sustainability narratives. *Consumption Markets & Culture*. <https://doi.org/10.1080/10253866.2024.2440557>
4. I.Ricciardi (2022). Product innovation for sustainable development in the fashion industry: A bibliometric review. *Sustainable Development*. <https://doi.org/10.1002/sd.70298>
5. Association for Computing Machinery (2024). Sustainable textile exports: Real-time decision making. In *ACM Conference Proceedings*. <https://doi.org/10.1145/3644713.3644777>
6. P.Kumar va R.Singh (2022). Textile Industry 4.0: A review of sustainability in manufacturing. *International Journal of New Materials & Technology*, 11(1), 45-60. <https://doi.org/10.56614/eiprmj.v11i1.229>
7. D.Raximova va A.Abdikahorov (2024). Export potential of branded textile enterprises in Uzbekistan on the global market. *International Journal of Management and Economics Fundamental*, 4(11), 112-119. <https://doi.org/10.37547/ijmef/volume04issue11-17>
8. M.Eshboyeva va A.To'rayev (2024). To'qimachilik korxonalarida eksport faoliyatining rivojlanish omillari. *Economics and Innovative Technologies*, 2(11), 306-310. <https://doi.org/10.60078/2992-877X-2024-vol2-iss11-pp306-310>
9. A.Olimov va U. Hamzayeva, u. i. (2022). prospects for the development of the textile industry of Uzbekistan. *Texas Journal of Engineering and Technology*, 8(2), 55-63.



10. G.Umarova (2025). Strategic development and investment analysis of the textile sector of Uzbekistan. Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.1234567>
11. N.Sharopova (2025) Trends in The Use of Artificial Intelligence and Digital Tools in Marketing Research in The Small Business Sector of Uzbekistan: Problems and Solutions. <https://cajitmf.casjournal.org/index.php/CAJITMF/article/download/823/851>
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.
13. Muallif tomonidan o'tkazilgan so'rovnoma natijalari.
14. B. Cui (2025). Unraveling the Trends and Future of Green Marketing in the Textile and Apparel Industry. Sustainability, 17(1), 292. <https://doi.org/10.3390/su17010292>
15. Republic of Uzbekistan. (2022). Development Strategy of New Uzbekistan for 2022-2026. Tashkent: Government of Uzbekistan. Available at: <https://uzembassy.kz/upload/userfiles/files/Development%20Strategy%20of%20Uzbekistan.pdf>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
